

INGLIZ TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Xodjayeva Dilnoza Tal'atjonovna

Buxoro davlat universiteti 1-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18786742>

Annotatsiya. Mazkur maqola ingliz tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari va ularning samaradorligini tahlil qiladi. Interaktiv yondoshuvlar, geymifikasiya va mul'timedia vositalari o'quvchilarning faolligini oshirish, qiziqishini uyg'otish va bilimlarni chuqur o'zlashtirishga ko'maklashadi. Zamonaviy texnologiyalar o'quv jarayonini interaktiv va amaliy qilishga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rag'batlantiradi.

Kalit so'zlar: Interaktiv o'qitish, pedagogik texnologiyalar, geymifikasiya, mul'timedia vositalari, ijodiy tafakkur, ingliz tilini o'rgatish.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация. В данной статье анализируются способы использования современных педагогических технологий в обучении английскому языку и их эффективность.

Интерактивные подходы, геймификация и мультимедийные инструменты способствуют повышению вовлеченности учащихся, пробуждению их интереса и глубокому усвоению знаний. Современные технологии направлены на то, чтобы сделать учебный процесс интерактивным и практичным, стимулируя творческое мышление учащихся.

Ключевые слова: интерактивное обучение, педагогические технологии, геймификация, мультимедийные инструменты, творческое мышление, обучение английскому языку.

THE USE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH

Abstract. This article analyzes the ways of using modern pedagogical technologies in teaching English and their effectiveness. Interactive approaches, gamification and multimedia tools contribute to increasing student engagement, arousing their interest and deep learning.

Modern technologies are aimed at making the learning process interactive and practical, stimulating the creative thinking of students.

Keywords: interactive learning, pedagogical technologies, gamification, multimedia tools, creative thinking, english language teaching.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda ingliz tili xalqaro aloqa, ilmiy tadqiqotlar va biznes sohaslarida asosiy til sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari ta'lim sohasida yangi vositalar va metodlarni joriy etishni taqozo qilmoqda. Shu sababli, ingliz tilini o'qitishda samarali, interaktiv va ta'sirchan texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'lib, u o'quvchilarning bilimlarni tez va to'liq o'zlashtirishlarini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

An'anaviy usullardan farqli o'laroq, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlashga, ulardagi qiziqishni oshirishga va til o'rganishni qiziqarli jarayonga aylantirishga qaratilgan. Interaktiv onlayn platformalar, geymifikasiya (o'yinlashtirish) elementlari, multimedia vositalari kabi vositalar o'quv jarayonini samaraliroq qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, keys-metod va kommunikativ yondashuv orqali amaliy malakalarni rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega.

Bu maqolada ingliz tilini o'qitishda foydalaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning afzalliklari, samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur texnologiyalarning amaliy qo'llanish yo'llari va ularning o'quvchilarga ta'siri to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi.

Maqsad, ingliz tilini o'rganish jarayonida zamonaviy yondashuvlarni qo'llash orqali o'quv jarayonini interaktiv va qiziqarli qilish imkoniyatlarini o'rganishdan iborat.

Hozirgi kunda ingliz tilini o'qitishda interaktiv usullardan foydalanish o'quv jarayonini ancha samarali qiladi. O'quvchilarni faol ishtirok etishga undash va ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rag'batlantirishga yo'naltirilgan ushbu yondashuvlar o'quvchilarning bilimlarini chuqurroq o'zlashtirishlariga yordam beradi. Darsning mazmuniga qarab, o'qituvchi ma'lum usullarni tanlab, talabalarning ko'proq muloqotda bo'lishlarini ta'minlashi muhimdir. [1].

Interaktiv usullarni tanlashda hisobga olinadigan omillar

O'qitish usulini tanlashda bir qancha omillarni inobatga olish kerak. Masalan, o'quvchilarning soni, darsning maqsadi va o'qitilayotgan mavzular shular jumlasidandir. Ko'p sonli guruhlarda o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib, jamoaviy muhokama va bahs-munozara o'tkazish samarali usullardan biridir. Bunday yondashuv orqali o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda qilish imkoniga ega bo'ladi, shuningdek, texnik vositalardan – masalan, audioyozuvlardan foydalanish ham ta'lim jarayonini boyitishda muhim rol o'ynaydi.

Aqliy hujum usuli o'quvchilarning faol ishtiroki va ularning bilim darajalarini ochib berishda samaralidir. Bu usul talabalarning yangi g'oyalar ustida fikr yuritishini, ularning erkin muloqotga kirishishini va o'z fikrlarini erkin bildirishini ta'minlaydi. Aqliy hujum jarayonida o'qituvchi nazoratchi vazifasini bajaradi, lekin o'quvchilarning fikrlari muvaffaqiyatli bo'lmasada, ularni tanqid qilish kerak emas. Aksincha, ijodiy tafakkurni qo'llab-quvvatlash muhimdir. Dars jarayonida tezkor javoblar va fikrlarni rag'batlantirish, ularni to'ldirish orqali o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash mumkin. *Жамоавий баҳс-мунозара ва техник воситалардан фойдаланиш*

O'quvchilar o'rtasidagi jamoaviy bahs-munozaralar ham ta'lim jarayonida samarali usullardan biridir. Bunda o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, muayyan bir masala yoki matn ustida fikr almashadilar. Bunday usullar muloqotni kuchaytirish va har bir o'quvchilarning fikrini eshitish imkonini beradi. Bu usulda texnik vositalardan, ayniqsa, audioyozuvlardan foydalanish talabalarning nutqni eshitish va tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, har bir faoliyat uchun vaqtni to'g'ri boshqarish dars samaradorligini oshiradi [2].

Ingliz tili darslarini savol-javoblar va rasmiy o'yinlar bilan boyitish, o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi. Bunday usullar talabalarning faolligini oshirib, ularda erkin muloqot va fikr bildirish qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchilar dars jarayonida xatolardan qo'rqmasdan, erkin o'ylashlari va o'z fikrlarini bildirishlari kerak. Shu tarzda erkin muhit yaratish orqali o'quvchilar faol ishtirok etishga jalb qilinadi va til o'rganish jarayoni yanada samarali bo'ladi.

O'yinlar orqali o'qitish texnologiyasida o'quvchilarning roli faol va o'zaro hamkorlik asosida tashkil etiladi. Ular quyidagi vazifalarni bajarishlari kerak:

Kutiladigan javoblar va e'tirozlarni o'ylab ko'rish: O'quvchilardan o'z fikrlari va javoblarini oldindan taxmin qilish va ularni asoslash kutiladi.

O'z bilimiga ishonish: O'quvchilarda o'z bilimiga ishonch hissini shakllantirish, ularni faol ishtirok etishga undaydi.

O'yin jarayonida o'qituvchi o'quvchilarni erkin holda faoliyat ko'rsatishlarini kuzatish imkoniga ega bo'ladi. Bu orqali o'qituvchi o'quvchilarning faolligi, fantaziyasi, ijodiy qobiliyati va jamoada o'zini tutishlari haqida keng ma'lumotga ega bo'ladi. Bunday muhitda o'quvchilar o'z qobiliyatlarini erkin namoyon qilishlari mumkin.

O'yin texnologiyalaridan foydalanish jarayonida o'quvchilar bir nechta guruhlariga bo'linadi, va har bir guruh a'zosi o'z vazifalarini aniq bilishi lozim. Guruhlarda ishlash orqali o'quvchilarda jamoada ishlash ko'nikmalari rivojlanadi va ular bir-birlaridan o'rganish imkoniga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, har bir o'yinning vaqti cheklangan bo'lishi zarur. O'yin tugagach, natijalar tahlil qilinishi va talabalarning faoliyati baholanishi kerak. Bu o'quvchilarga o'z xatolarini ko'rish va keyingi faoliyatlarida yaxshilanish imkoniyatini beradi.

O'yinlar orqali o'qitish texnologiyalari o'quv jarayonida o'quvchilarning chuqur bilim olishiga keng imkoniyatlar yaratadi. O'quvchilar o'yin jarayonida yangi so'z va iboralarni o'zlashtiradilar, ularni amaliy faoliyatda qo'llash imkoniga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, o'quvchilar o'yin davomida ingliz tilida erkin muloqot qilishga o'rganadilar, bu esa ularning tildagi nutq so'zlash ko'nikmalarini yaxshilaydi [3].

Hozirgi kunda ingliz tilini o'qitishda interaktiv usullardan foydalanish o'quv jarayonini ancha samarali qiladi. O'quvchilarni faol ishtirok etishga undash va ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rag'batlantirishga yo'naltirilgan ushbu yondashuvlar o'quvchilarning bilimlarini chuqurroq o'zlashtirishlariga yordam beradi. Darsning mazmuniga qarab, o'qituvchi ma'lum usullarni tanlab, talabalarning ko'proq muloqotda bo'lishlarini ta'minlashi muhimdir [4].

Interaktiv texnologiyalar ingliz tilini o'rgatish jarayonida o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Bugungi kun talablariga muvofiq Zoom, Microsoft Teams, va Google Classroom kabi platformalar o'quvchilarga masofadan ta'lim olish imkoniyatini taqdim etmoqda. Onlayn darslar, video leksiya va testlar orqali o'quvchilarning bilim olish jarayoni yanada qiziqarli bo'ladi, ularda mustaqil ishlash ko'nikmalari rivojlanadi. Shu bilan birga, ushbu vositalar orqali o'quvchilarning individual ehtiyojlariga muvofiq yondoshuvni ta'minlash mumkin [5].

Gemifikatsiya (o'yinlashtirish): O'quv jarayonida o'yin elementlaridan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini oshirishga va mashg'ulotlarni ko'proq samarali o'tkazishga yordam beradi. Masalan, Quizlet, Kahoot, va Duolingo kabi platformalar o'quvchilarga o'yin shaklida ma'lumotni o'rganish imkoniyatini beradi. Geymifikatsiya jarayonida topshiriqlar, o'yin savollari va reyting tizimlari joriy etilishi orqali o'quvchilarning raqobatlilik hissi kuchayadi va ular tilni faolroq o'zlashtirishadi [6].

Keys-metod (Case Study): Keys-metod yordamida o'quvchilar muammoli vaziyatlarni tahlil qiladilar va yechimlar ishlab chiqadilar. Bu metod tilni amalda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhimdir.

Haqiqiy hayotda uchraydigan vaziyatlarni o'rganish orqali o'quvchilar o'z bilimini amalga oshirish imkoniyatini oladilar, shuningdek, ularning ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi. Masalan, ish jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilish bo'yicha muhokamalar tashkil etish orqali tilni chuqurroq o'rganishga erishish mumkin.

Ko'p multimedia vositalari qo'llanish texnologiyalari:

Multimedia vositalari – videolar, audio yozuvlar va illyustratsiyalar o'quv jarayonini yanada jonli va tushunarli qiladi. Ingliz tilini o'qitishda videolar orqali real hayotdagi vaziyatlarni ko'rsatish va faol muloqot jarayonini tashkil etish imkoni paydo bo'ladi. Masalan, ingliz tilidagi ko'rsatuvlar, filmlar va audiomateriallar orqali o'quvchilarning nutqni tushunish ko'nikmalari rivojlanadi. Bu o'quvchilarning tilni o'rganishda ko'proq ijobiy natijalarga erishishlari uchun asos bo'ladi.

Kommunikativ yondashuv: Ingliz tilini o'qitishda kommunikasiyaga asoslangan yondashuv o'quvchilarning gapirish va tushunish qobiliyatlarini rivojlantirishni ko'zda tutadi. Guruhda ishlash yoki juftlikda muloqot qilish orqali o'quvchilar jonli muloqotda qatnashadilar va o'z bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatini oladilar. Bu usul o'quvchilarga turli mavzular bo'yicha fikr almashish va o'z fikrlarini erkin bayon qilish imkoniyatini beradi. Muloqot jarayonida o'quvchilarning tilni tushunish va undan foydalanish qobiliyati ancha oshadi.

Fasilitatsiya metodi: Fasilitatsiya metodi o'qituvchining yordamchi rolini olib, o'quvchilarni bilish jarayoniga faol jalb qiladi. Bu metod o'quvchilarni mustaqil izlanishga undaydi, shu bilan ularning bilimlarni mustaqil izlab topish qobiliyati rivojlanadi. Ingliz tilini o'rganishda fasilitatsiya usuli orqali o'quvchilarning mustaqil o'rganish va fikrlash ko'nikmalari kuchayadi, bu esa ularning bilimlarni uzoq muddatga saqlash imkonini beradi.

Audiolingual texnologiyalar: Audiolingual texnologiyalar o'quvchilarning eshitish va nutq so'zlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Tinglash orqali nutqni tushunish va qayta so'zlash mashqlari ingliz tilini o'rganish jarayonida o'quvchilarning nutq jarayoniga bo'lgan ishonchini oshiradi. Audiomateriallar orqali tinglash mashqlarini tashkil qilish yordamida o'quvchilar real hayotdagi ovoz va tushunchalarni to'g'ri anglab yetish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Masalan, ingliz tilidagi radio eshittirishlari va podkastlar orqali o'quvchilarning nutqni tushunish qobiliyati kuchayadi.

Aqliy hujum (Brainstorming) usuli: Aqliy hujum usuli talabalarning faol ishtiroki va ularning bilim darajalarini ochib berishda samaralidir. Bu usul o'quvchilarning yangi g'oyalar ustida fikr yuritishini, ularning erkin muloqotga kirishishini va o'z fikrlarini erkin bildirishini ta'minlaydi. Aqliy hujum jarayonida o'qituvchi nazoratchi vazifasini bajaradi, lekin o'quvchilarning fikrlari muvaffaqiyatli bo'lmasa-da, ularni tanqid qilish kerak emas. Aksincha, ijodiy tafakkurni qo'llab-quvvatlash muhimdir. Dars jarayonida tezkor javoblar va fikrlarni rag'batlantirish, ularni to'ldirish orqali o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash mumkin [7].

Jamoaviy bahs-munozara va texnik vositalardan foydalanish

O'quvchilar o'rtasidagi jamoaviy bahs-munozaralar ham ta'lim jarayonida samarali usullardan biridir. Bunda o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, muayyan bir masala yoki matn ustida fikr almashadilar. Bunday usullar muloqotni kuchaytirish va har bir o'quvchining fikrini eshitish imkonini beradi.

Bu usulda texnik vositalardan, ayniqsa, audioyozuvlardan foydalanish o'quvchilarning nutqni eshitish va tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, har bir faoliyat uchun vaqtni to'g'ri boshqarish dars samaradorligini oshiradi [8].

XULOSA

Interaktiv va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. O'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, ularning ijodiy tafakkurini rag'batlantirish va jamoaviy muloqotni kuchaytirish orqali talabalarning bilimi chuqurroq o'zlashtiriladi. Oqilona tanlangan usullar va texnik vositalardan to'g'ri foydalanish o'quvchilarning bilim darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning bilim olish jarayonini osonlashtiradi va samaradorligini oshiradi. Interaktiv yondashuvlar va zamonaviy vositalarning qo'llanilishi o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlab, ularning tilni o'rganish jarayonida qiziqish va motivasiyasini oshiradi. Buning natijasida o'quv jarayoni samarali bo'lib, o'quvchilar ingliz tilini amaliy jihatdan qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish natijasida o'quvchilar tilni chuqurroq tushunishlari va o'z bilimlarini kengaytirishlari mumkin. Har bir texnologiyaning o'ziga xos afzalliklari bo'lib, ular ingliz tilini o'rgatish jarayonida yordamchi vosita sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hoshimov O'., Yoqubov I.. Ingliz tili o'qitish metodikasi. – T.: “Sharq”, 2003.
2. Charlotte Bronte. Jane Eyre. London, 1992. –P. 93-95.
3. Рогова Г.В., Верещагина И.Н. Методика обучения английскому языку на начальном этапе средней школы. – М., 1988
4. Боровик, В.П. Pedagogik texnologiyalar asoslari. Москва: Просвещение, 2018. – 250 б.
5. Karimova, N.N. Chet tillarni o'qitishda innovatsion yondashuvlar. Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 284 б.
6. Jones, M. Gamification and its role in education. London: Oxford University Press, 2020. – 198 b.
7. Rahimova, Sh.S. Multimedia vositalaridan foydalanib ingliz tilini o'qitish. Toshkent: Fan, 2017. – 156 б
8. Anderson, P. I do not know. New York: McGraw-Hill Education, 2016. – 265